**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING SUD-HUQUQ MASALALARI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH QO‘MITASI**

2023-yil 17-mart 06-13/613-sonli Toshkent sh.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**
**Vazirlar Kengashining raisi**
**F.Ermanovga**

**Hurmatli Farxod Urazbayevich,**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida”gi SQ-669–IV-sonli Qarorida sud qarorlari ijrosi holatini o‘rganish vazifasi belgilangan.

Topshiriqqa asosan sud qarorlari ijrosi Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Oliy sud tomonidan 2021–2022-yillar bo‘yicha taqdim etilgan ma’lumotlarga muvofiq o‘rganildi.

O‘rganish natijalari Qo‘mita majlisida Byuro, Oliy sud, tegishli vazirlik, idora hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari ishtirokida muhokama qilinib, Qo‘mita qarori qabul qilindi. Qarorda sud qarorlari ijrosi bo‘yicha Byuro, shuningdek bir qator vazirlik, idora hamda hududlarga tegishli vazifalar belgilangan.

Ma’lumot uchun yuborilmoqda.

Ilova: Qo‘mita qarori 5 varaqda.

**Qo‘mita raisi** **N. Umarov**

Ijrochi: M.Axmedov
tel.: 78. 238-27-25
senat14@exat.uz

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI MINISTRLER KEŃESI
KIRIS 2/31 sanli 6 bet
“17” mart 2023 jil

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI DEN SAWLIQTI SAQLAW MINISTRLIGI
KIRIS № 08/287
“23” 03 2023 j.

---

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР КЕНГАШИНИНГ РАИСИ
ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ МИНИСТРЛЕР КЕҢЕСИНИҢ БАСЛЫҒЫ

**Н.Ерлепесовга**
**Мажбурий ижро бюроси ҚР бошқармаси (И.Арзиев)га**
**ИИВ (Б.Торебеков)га**
**Мактабгача таълим вазирлиги (Г.Бахиева)га**
**Халқ таълими вазирлиги (А.Наримбетов)га**
**Соғлиқни сақлаш вазирлиги (М.Курбанов)га**
**Давлат солиқ бошқармаси (Х.Бекчанов)га**
**Шаҳар ва туманлар ҳокимликларига**

ЎзР Олий Мажлиси Сенати қўмитасининг 2023 йил 17 мартдаги 06/223-сонли қарори маълумот ва ижро учун қабул қилинсин.

Бажарувчи: О.Сапаров
А.Иматов

**№ 2/31** **Ф.ЭРМАНОВ**
**17.03.2023й.**

Т.Абдусаматова

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING SUD-HUQUQ MASALALARI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH QO'MITASI**

2023-yil 17-mart 06/223-sonli Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining sud hujjatlarini ijrosiga doir faoliyati natijalari to'g'risida**

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijrosini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Birgina, Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi (bundan buyon matnda Byuro deb yuritaladi) tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilishi natijasida, faoliyatning tezkorligi va shaffofligi ta'minlanib, bir qator qulayliklar yaratilmoqda.

Xususan, idoralararo elektron hamkorlik tizimi orqali 35 ta tashkilotning 63 ta axborot tizimi Byuroning "MIB-Portal" dasturiga integratsiya qilingan.

Davlat ijrochilarining avtotransport vositalariga nisbatan qidiruv e'lon qilish haqidagi qarorlarini Yo'l harakati xavfsizligi organlariga elektron tarzda yuborish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, "Aliment to'lovlari" maqsadli jamg'armasi tashkil etilib, jamg'arma hisobidan undiruvchilarga pul mablag'larini to'lab berish amaliyoti joriy etilgan.

Shuningdek, 2022-yilda jami 29,8 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan umumiy undiruv 5,9 trln so'mga oshgan.

"Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" bilan bog'liq jamg'armalarga 578,6 mlrd so'm yo'naltirilib, undiruv 2021-yilga nisbatan 125,4 mlrd so'mga ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor yo'nalishlar to'g'risida"gi SQ-669–IV-sonli Qarori ijrosi yuzasidan Qo'mita tomonidan sud hujjatlari ijrosi Oliy sud hamda Byuro tomonidan 2021–2022-yillar bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan o'rganilganda, sohada ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi.

Xususan, 2021-yilda Byuro va uning hududiy tuzilmalari ish yurituvidagi jami ijro hujjatidan 23,5 trln so'mlik 1 238 124 ta, 2022-yilda 33 trln so'mdan ortiq bo'lgan 1 692 201 ta ijro hujjatining ijrosi ta'minlanmagan.



Jami ijro hujjatlarini tamomlash ko'rsatkichi 2021-yilda Andijon viloyatida 59 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiyda 62 foizdan, Samarqandda 63 foiz, 2022-yilda esa Navoiyda 57 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijonda 65 foizdanni tashkil qilib, respublika ko'rsatkichidan past bo'lgan.

Shu kabi, 2021–2022-yillarda amalda undiruvga Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Umumiy ijro hujjatlarining 12 foizi qonunda belgilangan muddatlarga rioya qilinmagan holda ijro qilingan.

Xususan, 2021-yilda 11,5 trln so'mlik 481 435 ta, 2022-yilda deyarli 18 trln so'mlik 672 724 ta ijro hujjatining muddati buzilgan holda ijro qilinib, oldingi yilga nisbatan 40 foizga ko'paygan.

Muddati buzib ijro qilingan ijro hujjatlari soni 2021-yilga nisbatan, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlarida sezilarli darajada oshgan.

2021-yilda Byuroning hududiy boshqarma va bo'limlari tomonidan tamomlangan va to'xtatilgan 996 ta ijro hujjati prokuror protestiga asosan bekor qilingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 1 155 tani tashkil etib, qariyb 16 foizga oshgan.

Sudlar tomonidan 2021-yilda Byuro organlariga axborot tizimi orqali yuborilgan 20 trln so'mlik 1 261 618 ta ijro hujjatidan 3 trln so'mdan ortiq 125 687 ta yoki ijro hujjatining 10 foizi ijrosi bajarilmagan bo'lsa, 2022-yilda yuborilgan salkam 29 trln so'mlik 1 899 625 ta ijro hujjatidan 10 trln so'mlik 493 822 ta yoki 26 foizining ijrosi ta'minlanmasdan, 2021-yilga nisbatan 16 foizga oshgan.

Xususan, ijrosi ta'minlanmagan hujjatlar Navoiy viloyatida 24 foiz, Xorazmda 20 foiz, Toshkent viloyatida 19 foiz, Surxondaryo va Sirdaryoda 18 foizdan, Qashqadaryo va Andijonda 17 foizdan ortgan.

Byuroning hududiy tuzilmalari tomonidan sud hujjatlari ijrosining bajarilishi sohalar bo'yicha tahlil qilinganida quyidagilar aniqlandi.

Xususan, 2021-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan yuborilgan 286 323 ta ijro hujjatidan 20 449 tasi yoki 7 foizining ijrosi ta'minlanmagan bo'lsa, 2022-yilda 350 217 ta ijro hujjatidan 70 883 tasi yoki 20 foizining ijrosi ta'minlanmasdan, 2021-yilga nisbatan 13 foizga oshgan.

Ijrosi ta'minlanmagan hujjatlar soni 2021-yilga nisbatan Navoiy viloyatida 20 foizga, Sirdaryoda 19 foiz, Xorazmda 16 foiz, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida 15 foizdan ko'paygan.

Ma'muriy sudlar tomonidan 2021-yilda yuborilgan 12 458 ta ijro hujjatidan 725 tasi yoki 6 foizining ijrosi ta'minlanmagan bo'lsa, 2022-yilda 5 600 ta ijro hujjatidan 1 302 tasi yoki 23 foizining ijrosi ta'minlanmasdan, 2021-yilga nisbatan 17 foizga oshib ketgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning qarorlari ijrosi yuzasidan 2021-yilda Byuro ish yurituvidagi jami 802 955 ta ijro hujjatidan 97 749 tasi yoki 12 foizining ijrosi ta'minlanmagan.

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI DEN SAWLIG'IN SAQLAW MINISTRLIGI
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
29 03 23
№ 01/2119

**Барча туман (шаҳар) тиббиёт бирлашмалари бошлиқларига**

Қорақалпоғистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Сизларга Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг 2023 йил 17-март кунги 2/31-сонли хати ҳамда ЎзР Олий Мажлиси Сенати қўмитасининг 2023 йил 17 мартдаги 06/223-сонли қарори маълумот ва ижро учун юбарилмоқда.

***Илова _____ варақда***

**Вазир:** **М.И.Қурбанов**

**Ижрочи:Г.О.Абдисаметова**
**Телефон:90-727-51-69**